

Dilmurod Asqarov

O‘ZRFA o‘zbek tili, adabiyoti va folklori

instituti tayanch-doktaranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Istiqlol yillarida Qo‘qon adabiy muhiti ijodkorlarining an’ana doirasida qalam tebratganliklari, mazkur an’ananing muxammas bog’lashdagi ko’rinishlari, mumtoz adabiyot vakillarining g’azallariga hamohang baytlar qo’shib, ularni munosib taxmis shakliga keltirganliklari tahlil qilingan. Mazkur davr ijodkorlari ham aruzda mahorat bilan qalam tebratgan, salaflari ijodiga muhabbatlarini bog’lagan muxammaslari vositasida ko’rsatishgan. Shoirlar ijodi bilan tanishish jarayonida amin bo’ldikki, muxammas janrining go’zal namunalari istiqlol yillarida ham qo‘qonlik shoirlar tomonidan rivojlantirilgan.

Kalit so’z va iboralar: *muxammas, taxmis, an’ana, adabiy meros, ishq, badiiy san’atlar, tahlil.*

Аннотация: В данной статье авторы литературной среды Коканда в годы независимости использовали свое перо в рамках традиции, проявления этой традиции в великолепной связи, дополняя гармоничными стихами газели представителей классической литературы и приведение их в форму соответствующих тахми. Творцы этого периода также умело размахивали во сне ручками и через почитателей проявляли свою любовь к творчеству предшественников. В процессе знакомства с творчеством поэтов мы убедились, что прекрасные образцы жанра мухаммас были разработаны поэтами Кокана в годы независимости.

Ключевые слова и фразы: *мухаммы, тахмисы, традиция, литературное наследие, любовь, изобразительное искусство, анализ.*

Annotation: In this article, during the years of independence, the authors of the literary environment of Kokand used their pen within the framework of the tradition, the manifestations of this tradition in the magnificent connection, adding harmonious verses to the ghazals of the representatives of classical literature and bringing them into the form of appropriate takhmis. The creators of this period also skillfully waved their pens in the dream, and showed their love for the work of their predecessors through the means of their admirers. In the process of getting acquainted with the works of poets, we were sure that the beautiful examples of the genre of mukhammas were developed by the poets of Kokan during the years of independence.

Key words and phrases: *muhammas, takhmis, tradition, literary heritage, love, fine arts, analysis.*

“Xo‘qandi latifning shoirlar, san’atkorlar, ulamoyu fozillar yurti ekanligi barchaga ayondir. Ayniqsa, shoirlari bilan katta shuhrat tutgan ushbu mo”jaz shaharda har bir davrda ham adabiyot beshigini tebrata olgan, ilohiy so’z sehrining dillarga zavq-u shavq bag’ishlashini bardavom qila olgan ijodkorlari bo’lgan Qo‘qon shoirlari haqida gapirganda, ko‘pincha, mumtoz adabiyot davri ijodkorlarini ko‘p eslaymiz. Bizning zamondoshlarimiz

bo'lgan kishilar ham adabiyotni rivojlantirganlar, o'z sa'y-harakatlari va ijodlari bilan adabiy muhit paydo qilganlar. [1]

Istiqlol yillarida Qo'qonda Anvar Yunus, Komil Jo'ra, Habibullo Said G'ani, Gulbahor Saidg'aniyeva kabi ijodkorlar qalam tebratdilar. Muhimi, ular qadim aruziy ohanglarda, mumtoz adabiyotimizning ko'hna janrlarida ham badiiyat namunalarini yaratdilar. Bu davrda asosan taxmislар ijod etildi. Taxmislarning aksariyati Alisher Navoiy g'azallariga bog'langanini kuzatish mumkin. Shoir Habibullo Said G'ani Navoiyning "Ashraqat min aksi shamsil ka'si anvorul hudo", "Orazing mushtoqidur bu ko'zki bo'lmish dardmand", "Agar ishq ayladi bechora bizni" kabi betakror g'azallariga badiiy barkamol taxmis bog'lagan.

Ma'lumki, bir shoir qalamga olgan mavzu ikkinchi shoirda boshqacharoq – masalaning e'tibordan chetda qolgan tamonlarini yoritgani bilan ahamiyatli. Yo. Is'hoqov Navoiy ijodidagi ishqni talqin qilar ekan, Shunday xulosaga keladi: "Navoiyning ishq masalasidagi konsepsiyasining asosiy mohiyati Shundan iboratki... majoziy ishq (insonga, borliqqa bo'lgan real sevgi) haqiqiy ishq (vujudi mutlaqqa – Haqqa bo'lgan muhabbat)dan alohida olinib, unga qarama-qarshi qo'yilmaydi. Balki majoziy ishq ishq haqiqiyning bir ko'rinishi yoki haqiqiy ishq yo'lidagi o'ziga xos bosqich sifatida baholanadi. Ruhan pok, ma'naviy komil inson uchun majozning o'zi ayni haqiqatdir".[2] Habibullo Said G'ani taxmislarda ham Navoiyyona ohang: zohiran hayot go'zali madh etilgan she'rlar ko'pincha botinan ilohiy mahbuba ta'rifiiga bag'ishlangan bo'ladi. Bunday she'rlarda majoz va haqiqat bir-birini to'ldirib keladi.

Quyidagi taxmis bu jihatdan diqqatga sazovor:

Xayoling rom etar nachora, bizni,
Parishon xotirim- sadpora bizni.
Nechun ovozalar, oshkora bizni,
Agar ishq ayladi bechora bizni
Va lekin qildi hajr ovora bizni.

Dastlabki banddanoq ma'shuqa dardida xotiri parishon, ishq tufayli chorasiz qolgan, hajr dashtida ovvora-yu sarson kezingan oshiq holati aniq namoyon bo'ladi.

An'anaviy she'riyatda shakllangan usullar bu she'rda ham ko'zga aniq tashlanib turadi. Shoir hijron domiga tashlangan oshiq tortayotgan azob-uqubatlarni, u kechirayotgan murakkab tuyg'u-kechinmalarni qator badiiy tasvir vositalari orqali juda ta'sirchan ifodalagan.

Yurak qondir chekarkan naqsh tig'i,
Va yo bizga muruvvat ishq tig'i?
Ko'zim ostida pinhon ashk tig'i,
Ne ishqu hajr, balkim rashk tig'i
Damodam qildi pora-pora bizni.

Alohiba ta'kidlash kerakki, Habibullo Said G'ani Navoiy qo'llagan badiiy tasvir vositalariga hamohang tasvir yaratgan. Navoiy baytidagi "ishq", "hajr", "rashk" so'zlariga mos holda shoir "yurak", "naqsh", "ashk" so'zlarini keltirib, tanosub san'atini yuzaga keltirgan.

Taxmisning keyingi bandlarida ham oshiq chekkan azoblar: ishq tig'inining yaxshi va yomonni farqlamasligi, raqibning omonligiyu, oshiqning esa dili vayronligi, oshiqlar

majlisida Majnun va Farhodlar ham unga hamkor ekanliklari, ma’shuqaning la’li labini orzu qilganligi bois boshiga yana ne savdolar tushajakligi, bu davron oshiq ahliga sitamkor bo‘lib, hamisha ko‘zlaridan yosh oqizajakligi tasvirlanadi.

Taxmisning so‘nggi bandida shoir tajohuli orif san’atidan foydalanib ma’shuqa husni jamolini ta’rif tavsif qiladi: Olloh seni guldan yaratganmikin, meni do’st qilib senga qaratibdi, gul qatiga esa taqdirimni bitibdi. Yuzingni bir bora ko‘rishga muyassar bo‘lgan edik, bir qarashing bizni Navoiydek jahon rasvosi qildi.

Seni guldanmikin Olloh yaratdi,
Habibingni habib senga qaratdi.
Raqamni gul qatiga yona bitdi,
Navoiydek yuzung bir ko‘rduk, etdi
Jahon rasvosi bir nazzora bizni.

Navoiyning mashhur “Ashraqat min aksi shamsil ka’si anvorul hudo” misrasi bilan boshlanuvchi g‘azaliga shoir Habibullo Said G‘ani tomonidan bog‘langan taxmis, aytish mumkinki, Navoiy fikrlariga yalakat mag‘izday birlashib ketgan.

“G‘azalning Navoiy ijodi, olamini tushunishda katta ahmiyatga egaligi, u “Xazoyin-ul maoniy”ning ochuvchi, kalit g‘azali ekanligi ham bugungi kun o‘quvchisiga ma’lum. Lekin shu narsa qiziqliki, asrlar bo‘yi biror shoirning ushbu g‘azalga muxammas bog‘laganligi noma’lum. XX asr oxiriga kelib Habibullo Said G‘ani tomonidan yozilgan muxammasda Navoiyning falsafiy karashlari badiiy tarzda kanday ochib berilgan ekan?

Bu g‘azal tasavvuf ta’limotidagi majoz tariyqining kalit g‘azalidir. Majoz tariyqi mumtoz adabiyotimiz tafakkur taraqqiyotining belgilovchi omillaridan biridir.

Ma’lumki, muxammas bog‘lovchi shoir oldingi uch misrada g‘azal muallifining fikrlarini to‘ldirib, kengaytirib, sharhlab keladi. Bu esa, o‘z-o‘zidan, bandning mazmun jihatdan va fikr ritmi jihatdan davrlarga bo‘linishini ta’minlaydi. [3., 4., 5., 6., 8] Demak, she‘r yaxlit hodisa bo‘lishi bilan birga, har bir band ham o‘z kompozisiyasiga, tuzilishiga va qandaydir ma’noda mustaqilligiga ega. Mustaqil deyishimiz boisi, har bir, so‘zlar vositasi bilan tugallangan fikr jumla bo‘ladi. Badiiyatda bo‘lsa, bir harf, bir imlo, bir imo ham tugal badiiy fikrni anglatishi mumkin. Habibullo Said G‘anining muxammasi ham bundan mustasno emas. Muxammasning birinchi band, birinchi misrasida har tarafning guyo rangin navolarga to‘lganligigina aytilsa, ikkinchi misrada bu obraz kuchaytiriladi. Bundan bir rivoyat yodga keladiki, go‘yo un sakkiz ming olamni yaratguvchisi xudovandi karim ming parda ortida yuzini ochgan paytda uning jamoliga bardosh berolmay qaqnus qush kuylab yuborgan ekan. Uning minqori va patlaridan rangin ohanglar to‘kilar ekan. Bular Yaratganga hamdu sanolardir. Demak, nur bilan faqat rangin navo emas, hamdu sano ham yog‘ilmokda. Uchinchi misra-da esa bu manzaraga an’anaviy boda obrazi kirib keladi. Nur va bodaning oddiy emasligi bizga tushunarli bo‘lib qoladi.

Shamsi anvar shu’lasidin har taraf rangin navo,
Olama har jilvasidin yog‘ilur hamdu sano,
Tebratur nurlarni boda subhidam nekbin havo.
Xuddi shu yerda Navoiy g‘azalining matla’si bu fikrlarning xulosasiday jaranglaydi:
“Ashraqat min aksi shamsil ka’si anvorul xudo”,

Yuz aksin mayda kur deb jomdin chiqdi sado.

Navoiy misralarida endi yuqorida tasvir etilgan Nurga to'la Jom va Yor obrazi paydo bo'ldi. Oldingi uch misra bandning birinchi davri hisob-lansa, aynan oxirgi ikki misra ikkinchi davridir. Shu oxirgi misralar bandda balandroq ovozda o'qishni ham talab etadi.

Yor obrazi haqida taniqli adabiyotshunoslarimiz ko'plab fikrlar bildirganlar. She'rning avvalida hali u qanday yor ekanligi noma'lum, she'r davomida ma'lum bo'ladi. Shu bir band ichida bir fikr beriladi, ochiladi, yakunlanadi va davom etishi uchun keyingi bandga uzatiladi. Ma'lum bulishicha, tong shunday paytki, unda mo"jizalar yuz berishi, insonning subhi sodiqdagi tilaklari ijobat bo'lishi mumkin. Va tongni kutib olayotgan har bir giyoh, har bir tosh har bir banda Ollohga hamdu sano aytadi. Subhi sodiqda esgan «nekbin havo», ya'ni shabboda bandalar tilagini Ollohga yetkazuvchi vositadir. Shu erda yana bir diniy rivoyat yodimizga tushadi. Emishki, Olloh taolo tong otmasdan turib azonda bandalaridan xabar olishga ettinchi osmondan birinchi osmonga tushib kelar emish. Xuddi shu vaqt bandalarning Yaratuvchiga eng yaqin payti bo'larkan. Shuning uchun tonggi namozdagi tilaklar ijobat bo'larkan. Demak, shoир misralarida Navoiy fikrlariga uyg'unlikni yanada ko'proq his etamiz. Muxammas misralari faqat qofiya, vazn, ritm bilangina o'zaro bog'langan bo'lmay, mazmun jihatdan Navoiy fikrlarini to'ldirib, tasavvurni kengaytirib boryapti. She'rni o'qir ekanmiz, tong otayotgan paytdagi ilk quyosh nurlarini tasavvur qilamiz va bu tongning huzurbaxsh hamda sirlarga to'la ekanligiga amin bo'lamiz. Keyingi band tahiliga o'tamiz:

Jom tula may ishqidin yon, shodumonliqidir karam,

Soqiyo, Qay sevgidin yig'lab ado bulgay bu sham,

Kimki oshiq o'ldi, andin bosh olib ketgay sitam...

Jom obrazi paydo bo'ldi. Shoир ushbu vahdat mayiga to'la jom ishqini bilan yonishni Ollohnning karami deb bilmoqda. Bilib-bilmaslikka olib, "qay sevgidin" shamning (sham ham ko'chma ma'noda) ado bo'lishini aytadi. Uchinchi misrada sham oshiq obraziga aylandi. Oshiqlardan sitam bosh olib ketadi, u - o'z ishqidan baxtiyor. Ushbu fikrlarni o'zlashtiranimizdan keyin Navoiy fikrlarini aniqroq tushunamiz:

G'ayri naqshdin ko'ngul jomida bo'lsa zangi g'am,

Yo'tur ey soqiy, mayi vahdat masallik g'amzudo.

Go'yo bandning oldingi uch misrasidagi tahlil keyingi ikki misrada umumlashtirib berilgaday. Shu tariqa muxammas tahlil va umumlashma tarzida davom etadi:

Qay taraf tushsa nigohing ko'rinxur har yon safol,

Vahki ko'ngil davlatidin o'zgasi yolg'on safol,

Asli olam ichra olam ne ajab vayron safol...

Endi tasavvurlarimiz bir oz murakkablashadi. Chunki endi shoир bizni Navoiyning falsafiy dunyosiga yanada chuqurroq olib kirmokda. "Safol" o'zi nima? Zukko kitobxon xayolan darhol Umar Xayyom ruboiylaridagi ko'za, ko'zagar, kulol kabi obrazlarni eslaydi. Demak, Sharq adabiyotida ko'za, jom, ya'ni tuproqdan yasalgan, "safol" deb ataluvchi obraz mavjud. Xayyom falsafasiga ko'ra, safol ko'za ota-bobolarimiz hokidir, bir ko'zada minglab inson tuprog'i bo'lishi mumkin. Olloh Odam alayhissalomni ham "solsol"dan, ya'ni Safol tuprog'idan yaratdi. Har bir inson esa alohida olamdir, Odamdan tarqagan – safolning bo'laklaridir. Har bir insonning dili ham ishq mayi bilan to'la "safol"dir. Demak, "sing'on

safol”da o’sha minglab xok bo’lgan insonlar qalbi ham bor. Shoир shuning uchun, qay tarafga qaramay safolga ko’zing tushadi, ishq ko’ngil davlati, ishqdan o’zgasi yolg’on deydi. Olam ichra olamning ham vayron ekanligi “sing‘on safol” obrazida mujassamligiga shoир ishora qiladi.

Xulosa. Yangi o’zbek adabiyotining shakllanish va rivojlanish davri Qo’qon adabiy muhitida muxammas janri asrlar davomida shakllangan an’analarga sodiq holgan holda rivojlandi. Muxammas shakli va poetikasi imkoniyatlaridan keng foydalangan Chustiy, Charxiy, Habibullo Said G’ani, Anvar Yunus kabi shoirlar an’ana doirasida asosan ishq va muhabbat mavzusida qalam tebratish bilan birga, ijtimoiy hayotda sodir bo’lgan o’zgarishlarga ham munosabat bildirdilar. Davr ijodkorlari asosan Alisher Navoiy g’azallariga taxmis bog’ladilar.

Muxammaslarda haqiqiy va majoziy ishqning ham turfa talqinlarini ko’rishimiz mumkin. Binobarin, ularning ishq haqidagi qarashlari Haqqa bo’lgan muhabbat ohanglaridan ham xoli emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M.Siddiqov. Tafakkur ziyosi. // Habibullo Said G’ani. -T.: Yangi asr avlodи, 2014. -B. 3.
2. Is’hoqov Y. Navoiy poetikasi. – Toshkent: Fan, 1983. - B. 25.
3. Dilmurod Asqarov. Mukhammas form in the lyrics of Uvaysi. International journal of research in commerce, it, engineering and social sciences ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876. 5-9.
4. Askarov D. IN PARTICULAR OF AMIRY’S COMPOSITION OF NAVAI’S GHAZAL. –2022.
5. Dilmurod Asqarov AMIRIYNING NAVOIYGA MUXAMMASI // Academic research in educational sciences. 2023. NoConference Proceedings 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/amiriyning-navoiyga-muxammasi> (дата обращения: 08.04.2023).
6. Dilmurod Askarov. (2022). IN PARTICULAR OF AMIRY’S COMPOSITION OF NAVAI’S GHAZAL. European Scholar Journal, 3(12), 34-36. Retrieved from <https://scholarzest.com/index.php/esj/article/view/3040>
7. Asqarov, D. (2024). MUXAMMASLARDA BADIY SAN’ATLAR. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 3(2), 137-139. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/zdit/article/view/28455>.
8. Asqarov D. AMIRIYNING NAVOIYGA MUXAMMASI //Academic research in educational sciences. – 2023. – T. 4. – №. Conference Proceedings 1. – C. 101-105.
9. Аскarov Д. Uvaysiy lirikasida muxammas shakli //Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 27-31.

10. Asqarov, D. (2024). AMIRIY MUXAMMASLARIDA QOFIYA. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 2(18), 39-42.
11. Asqarov, D. (2024). MUKHAMMAS IN THE LYRICS OF THE RULING POETS. American Journal of Philological Sciences, 4(02), 46-52.